

“XIVA XONLIGI ARXIVI” HUJJATLARIDA IQTISODIY ATAMALARNING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Abduxalilova Aziza Erkinovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o‘qituvchisi, PhD

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Xiva xonligi arxivi” hujjatlarida uchraydigan iqtisodiy atamalarning manbashunoslik tahlili amalga oshirildi. Xiva xonligi davriga oid rasmiy hujjatlarda (farmonlar, soliq daftarlari, vaqfnomalar, mulkiy bitimlar) qo‘llanilgan iqtisodiy terminlarning semantik mazmuni, funksional yuklamasi va tarixiy transformatsiyasi tahlil qilindi. Soliq atamalarining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etishdagi o‘rni talqiq etildi.

Kalit so‘zlar. *Xiva xonligi arxivi, soliq atamalari, sanoq daftarlari, patta, nishon, mubaraknoma, yorliq, ulog‘, tilla, puxta, tivah, a‘lo, avsot, kashti, chahol yek, qo‘nolg‘a.*

ABSTRACT

This article provides a source analysis of economic terms found in the documents of the “Archive of the Khiva Khanate”. The semantic content, functional load and historical transformation of economic terms used in official documents of the Khiva Khanate period (decrees, tax books, endowments, property transactions) were analyzed. The role of tax terms in the study of socio-economic relations was discussed.

Keywords. *Khiva Khanate Archive, tax terms, census books, patta, nizh, mubaraknama, tyakhl, ulog‘, tella, puhta, tivah, a‘lo, avsot, kashti, chahol yek, qonolga‘a.*

KIRISH

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo tarixshunosligida o‘rta asrlar tarixiy manbalarni faqat fakt-axborot tashuvchisi sifatida emas, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning asl mohiyatini o‘zida aks ettiruvchisi sifatida o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu jarayonda ayniqsa arxiv hujjatlari, xususan, xiva xonligi arxivi hujjatlarining davlat boshqaruvi va iqtisodiy munosabatlarga doir hujjatlari manbashunoslik tadqiqotlarining muhim obyektiga aylanmoqda.

Xiva xonligi arxivi hujjatlari XVIII–XIX asrlarda Xorazm hududida shakllangan iqtisodiy tizim, fiskal amaliyot va mulkiy munosabatlarni o‘rganishda noyob manbaviy bazani tashkil etadi. Mazkur hujjatlarda qo‘llanilgan iqtisodiy atamalar esa

ko'pincha tarixshunoslikda barqaror va o'zgaras tushunchalar sifatida talqin qilinib kelinmoqda. Holbuki, manbalarni chuqur tahlil qilish iqtisodiy terminlarning mazmuni ularning real amaliyotdagi qo'llanilishi, hujjat yaratilgan muhit va hokimiyat ehtiyojlariga qarab sezilarli darajada o'zgarganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqot Xiva xonligi tarixini o'rganishda, avvalo O'zbekiston Milliy arxivi I- 125 fondida saqlanayotgan "Xiva xonlari arxivi" dan o'rin olgan asl manbalar-hujjatlarga murojaat qilindi. Ushbu hujjatlarni ilmiy muomalaga kiritish hamda interpretatsiya qilishda tarixiylik, qiyosiy tahlil singari metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Qo'ng'irotlar davri Xiva xonligi iqtisodiy, xususan soliq atamaları ko'plab uchraydigan asosiy manba-hujjatlardan biri yorliqlardir. Odatda bu yorliqlar tarxon yoki tarxon yorliqlari nomi bilan ham yuritilib, asosan soliqlardan yoki ma'lum majburiyatlardan ozod qilinganlikni anglatuvchi rasmiy hujjat turi hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida o'rganilgan yorliqlarda jarib, tanobona, ipaklarindin mol, ilchi yoki yo'lchi, qo'nolg'a, ulog', so'ysun, borsbon, kashtibon, qo'ruqbol yoki qo'ruqbon, darvozabon, qozu, qochu, bigar, hashar, boj, tamg'a, chahol yek, rohdorliq, xazinachiliq, amalat, olg'ot, dud, ravnnot, qazon xarji, sari-mard, bilejat singari yigirma oltita iqtisodiy yoki soliq bilan bog'liq atamalar uchraydi. [1] Bularning davlat soliq tizimida amalda bo'lganlik masalasini aniqlash uchun, mazkur atamalarning kelib chiqishi, lug'aviy ma'nosi va funksiyasini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA

Yorliqlarda ko'plab uchraydigan *ulog'* atamasi xususida L. Boymatov atama turk-mo'g'ul tildan olingan "og'ir yuk ko'tarish, yuk ortish va arava tashish uchun ishlatiladigan har qanday uy hayvoni" ma'nosini anglatuvchi uloq nomi bilan bog'lab, Nosir ad-din Tusiyning ma'lumotlariga tayanib, "ulog'" dastlab burch bo'lmaganligi, keyinchalik ham soliq turi bo'lmasdan, aholi pochta va chopar otlarini yetkazib berish majburiyatlarini anglata boshlaganligi ta'kidlaydi.[13] I.P. Petrushevskiy fikriga ko'ra, "ulag" atamasi mo'g'ullarga turklardan o'tgan va u mo'g'ullar istilosidan oldin "yom" burchi mavjud bo'lgan deb taxmin qiladi. Biroq, yorliqlardan tashqarida bu atamaning keng qo'llanilishiga guvoh bo'lmadik. Tavhija daftarlarida kelgan ma'lumotlarga ko'ra, elchilar va davlat ishlari bilan yuborilgan saroy ayonlariga yo'l, ozuqa va boshqa xarajatlar uchun qo'nuq puli ajratilganligi esa bu atamaning soliq tizimida amalda bo'lmaganligini asoslaydi.

Yana bir atama “ipaklaridan mol” asli turkiy, yorliqlarda uchraydigan, ammo boshqa rasmiy hujjat yoki soliq daftarlarida uchramaydigan atama. Mazmun-mohiyatan Xorazm o'lkasida ipak yetishtirish bilan shug'ullanuvchi kimsalardan olinadigan foyda yoki daraomad solig'ini anglatadi. Ammo atamaning funksiyasi hamda boshqa turdagi manbalarda bu atamaning keng qo'llanilmaganligiga asosanib uning zakot solig'ining bir ko'rinishi isfatida xulosalash xatô bo'lmaydi[2].

Qo'riqbon yoki qo'ruqmol shaklida keladigan atama asosan, XVII-XVIII asr hujjatlarida ko'proq uchraydi. Yorliq hujjatlarini tadqiq etgan olim Villiam Vud fikricha, bu atama “qo'nuq” – “mol” asos va qo'shim chasidan iborat bo'lib, xonga tegishli bo'lgan taqiqlangan yerga tegishli atama sifatida talqin qiladi. V. Vud bunday yerlar sirasiga yaylovlar, qabriston, ov qilish uchun mo'ljallangan hududlarni kiritadi.[10]

Kashtibon atamasi “kashti” so'zidan olingan bo'lib, kema, qayiq degan ma'noni anglatadi. O'zMA hujjatlarida kashtibon atamasi yorliqlardan tashqari arzdosht hujjatlarida hamda daftarlarda ham uchrab turadi. Hujjatlar tahlili asosida kashtibon daryoda suzish uchun xonlik qayiqlaridan foydalanganlik uchun to'lov hamda aholini daryoning narigi tomoniga o'tkazib qo'yganligi uchun olingan to'lov bo'lganligini taxmin qilish mumkin [4].

Qo'ng'irotlar davri Xiva xonligi agrar davlat bo'lib, mamalakatning asosiy daromad manbai qishloq xo'jaligi bilan bog'liq yig'imlar, soliqlar bilan bevosita bog'liq edi. Soliq daftarlari ag'ri, botmon, mulk, yorliqli mulk, atoyi mulk, a'lo, adno, avsot, tanga, tilla, puxta tilla singari iqtisodiy atamalarni uchratish mumkin. Ulardan biri “atoyi mulk” – turkiy “ota” so'zidan olingan hamda “merosiy mulk” ma'nosini anglatgan [7]. A'lo atamasi bevosita Xiva xonligida amalda bo'lgan, yer miqdorini belgilovchi atama, o'rganilgan manbalarda uning aniq chegaralari belgilanmasdan, hajmi 15 tanobdan ortiq bo'lgan yerni anglatgan.

Xiva xonligining XIX asrdagi rasmiy pul birligi tilla bo'lgan. Tillaning hajmiga ko'ra, kichik tilla va puxta tillaga bo'lingan[5].

Xiva xonligida qo'shni davlatlar bilan savdo-tijorat ishlari yo'lga qo'yilgan. Xalqaro savdoda asosiy o'lchov birligi sifatida “tivah” hizmat qilgan. Uning ma'nosi “bir tuyaga ortilgan yuk” ma'nosini anglatgan[4].

Xorijdan, asosan Rossiyadan kelgan tovarlarni qal'achi nomi bilan yuritilgan. Lekin ayrim manbalarda o'ruschi atamasi bilan almashinib qo'llaniladigan holatlar ham kuzatiladi[3].

XULOSA

Xiva xonligi arxivi hujjatlarida uchraydigan iqtisodiy atamalarning manbashunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur terminlar nafaqat fiskal

amaliyotning balki XVIII–XIX asrlarda Xorazm hududida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, davlat boshqaruvi mexanizmlari hamda hokimiyat–jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning muhim indikatorlari hisoblanadi. Yorliqlar, soliq daftarlari va boshqa rasmiy hujjatlar tahlili asosida aniqlanishicha, koʻplab iqtisodiy terminlar real fiskal tizimning majburiy unsuri boʻlmasdan, maʼlum davr, vaziyat yoki hujjat turiga xos funksional yuklamaga ega boʻlgan. Xususan, ulogʻ, ipaklarindin mol, qoʻruqbon, kashtibon, qozu, qochu, koʻfruchi kabi atamalar soliq tushunchasidan koʻra koʻproq majburiyat, xizmat yoki davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi maxsus amaliyot shaklini ifodalagan. Bu holat iqtisodiy terminlarning semantik mazmuni ularning hujjat yaratilgan konteksti va siyosiy-iqtisodiy ehtiyojlariga bevosita bogʻliq holda shakllanganligini koʻrsatadi. Shuningdek, tadqiqot Xiva xonligi iqtisodiy terminologiyasi turkiy–moʻgʻul, arabiy, forsiy va mahalliy anʼanalar sintezi asosida shakllanganligini koʻrsatadi.

ADABIYOTLAR

1. OʻzR MA I –125-fond, 2-roʻyxat, 10-yigʻma jild.
2. OʻzR MA I –125-fond, 2-roʻyxat, 12-yigʻma jild.
3. OʻzR MA I –125-fond, 2-roʻyxat, 14-yigʻma jild
4. OʻzR MA I –125-fond, 2-roʻyxat, 16-yigʻma jild.
5. OʻzR MA I –125-fond, 2-roʻyxat, 489-yigʻma jild, 1-varaq
6. OʻzR MA I –125-fond, 2-roʻyxat, 455- yigʻma jild, 3-4-varaqlar.
7. OʻzR MA I –125-fond, 2-roʻyxat, 94-yigʻma jild, 1-10- varaqlar
8. OʻzR MA I –125-fond, 2-roʻyxat, 409, 412, 444, 449, 452-yigʻma jildlar
9. Султонов Ў. Мусулмон мамлакатлари дипломатикаси. – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2019. – Б. 82
10. Wood W. A collection of tarkhan from the Khanate of Khiva. – Bloomington IN, 2005. Pappers on Inner Asia. No. 38. – P. 39-49
11. Boltayev A. Xiva esdaliklari. OʻzR FA ShI № 11645 raqamli qoʻlyozma
12. Иванов П. Архив хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. – Ленинград, 1940. – С. 94
13. Лукмон Бойматов Тюрко-монгольские термины в налоговой системе Ирана И Центральной Азии XIII-XIV вв.// Материалы Международной научно-практической конференции «Духовно-исторические связи народов Ирана и стран Центральной Азии» Алматы. - С. 87
14. Уринбаев А., Хорикава Т., Файзиев Т., Джураева Г., Исогай К. Каталог Хивинский казийских документов XIX – начала XX вв. – Ташкент-Киото, 2001. – 729 с.